oZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA´LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«Fizika-mehnat» fakulteti.

«Mehnat ta’limi» yonalishi

IV- kors Madaminova Iroda Ibragimovnaning

# *BITIRUV MALAKAVIY IShI*

Mavzu: Umumta`lim maktablarida «Kashtachilik» togaragini olib borish uslubi.

«Himoyaga tavsiya etilsin»
«Mehnat talim»
kafedrasi mudiri ___________ N.Orinbetov
«_____»_______ w0qh-yıl

Talaba` _________ Madaminova Iroda.
Ilmiy rahbar` __________ M.Amanbaev.

Nukus -w0qh y

Mavzu. Umumta`lim maktablarida «Kashtachilik» togaragini olib borish uslubi.

Reja.

**I. Kirish.**

I.I. Kashtachilik san’ati tarixi.

I.II. Togarakga oquvchilarni tanlash

**II. Asosiy qism.**

II.I. Kashtachilik bezak buyumlar turlari.

II.II. Kashta tikish texnologiyasi

II.III. Togarakda stilizatsiya tabiiy osimlik turlarini naqsh ementlari holatida chizish

II.IV. Mustaqil naqsh kompozitsiyasini tozish.

**III. Xulosa**

III.I. Foydalangan adabiyotlar

**Mundarija**

**Kirish…**……………………………………………………………………………..

Kashtachilik san’ati tarixi……….. …………………. ……………………

Togarakga oquvchilarni tanglash ……………………………… ………..

**Asosiy qism.**

Kashtachilik bezak buyumlar turlari. . ………………………………...

Kashta tikish texnologiyasi.. … …………………. ……………………..

Togarakda stilizatsiya tabiiy osimlik turlarini naqsh ementlari holatida chizish……….

……………… ………………….. ……………………….

Mustaqil naqsh kompozitsiyasini tozish…. ………………………….

**Xulosa.** …………….. ……………………… ……………………………

Foydalangan adabiyotlar.. ……………………………………………

Kirish.

O`zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va «Ta'lim to`g`risida»gi" qonunida ta'lim tizimini shakli va mazmunining islohotini kun tartibiga qo`yadi.

Ta'lim tizimidagi islohotlar esa alohida fanlarni o`ziga xos usullar vositasida o`qitishni talab etadi.

Insonning komillik darajasiga yetishishida, ijodiy fikrlay oladigan, barkamol shaxs bo`lib shakllanishida kashtachilik san'at fanining o`rni, o`ziga xos roli mavjudki, bu mavjudlikni naqqoshlik turi yana ham boyitadi. Bugun naqqoshlik san'ati yosh avlodni estetik tarbiyalash bilan birga, Vatanimizga muhabbat, ma'naviy, madaniy merosimizdan faxrlanish, mustaqilligimizni turli tahdidlardan asrash va mustahkamlash, milliy an'analar, qadriyatlar ruhida tarbiyalash, milliy o`zlikni anglash, ma'naviyat tarbiyasini o`z ichiga oladi va kashtachilik san'at ta'limi vositasida oliy tuyg`ularni o`quvchilar ongiga singdiradi.

Ilm-fan, san’at gullab yashnagan Amir Temur va temuriylar davrida xalq amaliy san’atning har xil turlari boyicha juda ko’b san’at asarlari yaratilib, ulkan kashfiyotlar qilindi. O’sha davrda qurilgan barcha maqbara va madrasalarni kuzatadigan bo’lsak, ularning shakli va bezaklarida Kashtachilik san’ati ham oz aksini topganligini guvohi bo’lamiz. Andozalar va moslamalar yordamida ishlanadigan turli geometrik naqshlarning yaratilganligi bunga misol bola oladi.

XV-XVI asrlarda yashab ijod etgan moyqalam sohiblari Mirak Naqqosh, Sultonali Mashshadiy, Kamoliddin Bexzodning gozal xalq amaliy san’at asarlarida, badiiy qurish-yasash san’ati qollaniladi va rivojlanadi. XVIII-XIX asrga kelib boshqa sohalar kabi xalq amaliy san’atga e’tibor pasayib ketdi. Chunki jamiyatda bolinish, ozaro urush-janjallar, mahalliychilik boshlanayotgan edi.

Xalq amaliy san’at turlaridan kashtachilik, gilamchilik, yogoch o’ymakorligi turlari bilan uzviy bogliqki, kashtachilik san’atidan bilim berish, ijodkorlikni, tafakkorni, fikrlashni o’stirishda muhum ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda badiiy kashtachilik togarak ishlari birmuncha takomillashib, mutaxasis olimlar tomonidan yangi shakl, yonalishlari ishlab chiqildi va o’qitib kelinmoqda. Ayniqsa, soha olimi  S.Bolatov va Q. Qosimovlar tomonidan ma`lum ishlar amalga oshirildi.

Kashtachilik san’ati o’quvchilarni fikrlashga, ijodkorlikka, tafakkor qilishga o’rgatar va xalq amaliy san’atning bir qancha turi bilan uzviy bogliq ekan, bu qiziqarli san’at turi bugungi kunda ham dolzarb bolib kelmoqda. Kashtachilik togaraklarin umum talim maktablarida tashkillashtirilsa, mamlakatimizda tafakkori keng ijodkor avlodni shakllantirishda katta ahamiyatga ega boladi.

Xalq amaliy sanat  ta`limi va tarbiyasi mazmunida milliy xalq amaliy san’ati merosimiz bilan birgalikda umum mehnat ta`limshunosligi va uslubiyatiga tayanish lozim. Xalq amaliy sanat  fani pedagogini tayyo’rlashda ta`lim mazmunining muhum yonalishlari, umum mehnat va milliy an`analarining ustuvorligiga amal qilish darkor.

Kashtachilik amaliy san`atdan tashkil etiladigan to’garaklar umumiy talim maktablirining barcha sinflarini qamrab oladi.

Ular kichik (1-4-sinflar) o’rta (5-7sinflar) katta (8-9-sinflar) guruxlardan tashkil topadi va ular naqqoshlik, ganchkorlik, miskorlik, kashtachilik, yog’och o’ymakorligi, shuningdek memorchilik san`atshunoslikning to’garagi hisoblanadi. To’garaklar san`atning u yoki bu turi yoki janri asosida ham tashkil etilishi mumkin. Bu to’garaklarning turlari ularga ajratilgan soatlar hajmi va talim mazmuni bolalarning istaklari maktab  imkoniyatlari bolalarning yoshlik xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Maktab to’garaklarning maqsad va vazifalari asosan bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanar ekan ularni qat`iy reja asosida muntazam olib borilishi talab etiladi. To’garaklar har-bir maktabda san`atning turlari guruxlar bo’yicha bitta yoki bir nechta bo’lishi mumkin. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida to’garak rahbarining asosiy etibori quyidagilarga qaratiladi. amaliy san`at  to’garaklariga qiziqishii va qobiliyati bor o’quvchilar qabul qilinadi hamda har bir guruxda ularning soni 10, 1o tadan oshmasligi lozim. Aks holda ular bilan olib boriladigan ishlarning soni sifati pasayib ketadi. To’garakda bolalarning qizikishi idroki kashtachilik malakalari, ijodiy qobiliyatlari urganilib va malum vaqt

mobaynida sinovdan o'tkazilib qabul qilinadi. To'garaklarda kashtachilik amaliy san`at talimi mazmuni alohida etiborga loyiq. Talim mazmuning togri belgilanishi to'garak ishini muffaqqiyatini taminlaydi. Shuning uchun rahbar mavjud dasturlarni o'rganib chiqishi va shu asosda o'zining mahalliy sharoitlari bolalarning tayyorgarligi va imkoniyatlarini moddiy texnikaviy asosinining mavjudligiga qarab talim mazmuniga oid o'z rejasini ishlab chiqadi. To'garaklar kashtachilik va amaliy san`atning qaysi turi yoki janri yuzasidan bo'lishligidan qat`iy nazar u amaliy va nazariy qismlardan tashkil topadi. Kashtachilik san`atdan amaliy ishlar bevosita naturaga qarab rasm ishlash kompozitsiya surat namunalarini ko'chirish kabi yonalishlarda amalga oshiriladi. Amaliy  san`atga doir (naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, badiiy sopoldo'zlik, miskarlik, kashtachilik v.b. ) to'garaklarida bolalar naqsh namunalaridan ko'chirish mustaqil ijodiy kompozitsiyalar ishlash bilan shugullanadilar. Bunday darslarda o'qituvchi tasvirlashning nazariy asoslari hisoblangan yorug soya, perspektiva, rangshunoslik qonunlariga ham alohida e'tibor beradi. Bu qonun va qoidalarga doir maxsus mashg'ulotlar tashkil etilishi mumkin.

oqitishning barcha talablari uchun zaruriy sharti xalq amaliy san'at sirlarini ozlashtirish bilan birga oquvchi va yoshlarga harjihatdan orgata olish usullarini egallashdir.

Xalq amaliy san'at va amaliy san'at pedagogikasi mutahassisligida badiiy ta`lim mazmuni quyidagicha tarkib topadi.

Xalq amaliy san'ati oziga xos juda kop namunalarga, rang-barang turlarga ega. Xalq amaliy san'at oqituvchilarining faoliyati bilan uzviy bogliq bolgan hamda maktab ta`limi mazmunini olib borishda amaliy sana`tining kashtachilik, ganchkorlik va badiiy bezakning boshqa korinishlarida namoyon boladi. Demak, rassom-pedagog shu korinishlarining birini oz sharoiti, xohish irodasi va qiziqishiga qarab birortasini tanlab olib, uning tarixi, davomchilari kimligini, san'atni yaratishdagi sir asrorlarini mukammal ozlashtirishi lozim. Agar tanlangan Amaliy san'at turi «Kashtachilik» boladigan bolsa, bu san'atni ozlashtirib olish uchun qoyidagi talablar qoyiladi.

-kashtachilik san'ati va uning hayotimizda tutgan omi

-kashtachilik san'atida ishlatiladigan asbob-uskunalar va ulardan foydalanish yollari

-naqsh eementlarini organish, ijodiy kompozitsiya tozishda foydalanish qoidalari

-naqsh kompozitsiyasini turli joylarga moslashtirib tozish yollari va usullari

-naqshda rang va buyoqlarni tanlash va ishlatish sirlari

-naqsh sirlarini oquvchilarga orgatishning metodik tomonlarini bilish.

## KAShTACHILIK SANATI TARIXI

ozbek milliy kashtachiligi (kashtadozlik) amaliy san’atning eng qadimiy turlaridan bolib, u xalqning oz turmushini gozal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san’ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuxrat qozongan. ozbek xalq ustalari qollari bilan tikilgan suzana, zardevor, gulkorpa, choyshab kabilar Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qushma Shtatlari, Hindiston, Afgoniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Fargona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. hozirgacha buyumlar oziga xos gozallik, nafis bezaklarning rangbarangligi bilan kishilarni qayratga solib kelmoqda. Badiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. ozbek kashtachiligi iqlim, tabiy sharoit, muhit bilan bogliq holda barcha kasbhunarlari bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san’atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV— XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini korish mumkin. İspan elchisi Rui Yuonzales de Klavixo Amir Temur saroyida ozbek milliy kashta bezaklarini korganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Bexzod «Zafarnoma»ga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning kop ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qol kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. ozbek kashtachiligi qoshni xalqlar kashtachiligi ta`sirida boyidi va rivojlandi. ozbek kashtalariga nazar solsak, unda Hind, Hitoy, Rus, Afgon, Qozoq, Qirgiz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz.

Bu san’atda har bir millatning oziga xos eng kop qollaydigan naqshlari boladi. Chunonchi ozbek kashtalarida osimliksimon, geometrik hamda gul naqshlari kop bolsa, rus kashtachiligida geometrik, osimliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar kop tasvirlanadi. Qozoq va qirgiz kashtachiligida esa koproq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Qadimiy an’`analarga kora, ozbek qizlari — bolajak kelinchaklar seplari — har xil kashtachilik buyumlarini ozlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bolsa, qayliq shunchalik yuqori baholanar edi. Qizlar 7—9 yoshidan boshlab kashta tikishga orgatilardi. Ular uch, turt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar (Kashtachi ayollar). Yetishib chiqqan kashtachilar ozining san’ati va tabiatiga kora gozallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

Kashtachilikning muhum turlaridan biri zardozlikdir.

**Zardo’zlik** — zar ip bilan kashta tikish kasbi bolib, ozbekistonda, ayniqsa Buxoroda keng tarqalgan. Zardozi usulida tayyorlangan kashtalarda oltin, kumush rangdagi ipak hamda sun`iy ipak va tolalardan foydalaniladi.

Kashtachilikning maxsus turlaridan biri — applikatsiyadir.

**Applikatsiya** — lotincha yopishtirish degan ma`noni bildirib, gazlama, qogoz va boshqa materiallarga rangbarang gazlama, qogoz bolaklarini yopishtirish yoki tikish yoli bilan bezash demakdir. Applikatsiya kashtadozlikning maxsus turi bolib, u oziga xos texnologiyaga ega. Asosiy matoga rangdor mato parchasini, charm va boshqalarni qadab, atrofi choklanadi. Applikatsiyada kopincha izma choklardan foydalaniladi. Kashtaning bu turi ozbekistonda yaxshi rivojlanmagan. hozirgi vaqtda kopincha bolalar pal`tolariga, koylaklariga, bosh kiyimlariga har xil qush, meva, gul va hayvonlar tasviri applikatsiya usulida choklanadi (Kashtachilikda ishlatiladigan naqsh eementlari). Ayrim hollarda ayodlarning kiyimlari shu usulda bezatilyapti.

Arhitekturada va biror buyumlarni bezashda applikatsiya usulidan keng foydalanib kelinmoqda.

**Kashtachilik to’garagining maqsad va vazifalari.**

Xalq amaliy san’at turlari boyicha olib borilayotgan togaraklar ichida ozbek xalq amaliy bezak san’ati togaraklari alohida e’tiborga sazovordir. ozbek xalq amaliy bezak

san’atining xilmaxilligi kishini oziga jalb etadi va unga nisbatan qiziqish uyqotadi. ozbek xalq amaliy bezak san’ati togaragi xalq amaliy san’at darslarida olinayotgan bilimlarining davomidir. Xalq amaliy bezak san’ati togaraklari shu san’atga qiziquvchilarning xohishi bilan yiqilgan birlashmadir. Xalq amaliy bezak san’ati togaraklarida bu san’at sirlarini maxsus ilmiy va amaliy asoslangan dastur asosida orgatiladi.

ozbek xalq amaliy bezak san’ati togaraklarining maqsadi:

tevarakatrofdagi voqea va hodisalarni, gozalliklarni seza bilishga, ulardan bahra olishga hamda ularga toqri baho berishga orgatish.

— qatnashuvchilarni qoyaviy, ahloqiy jihatdan odobli, mehnatsevar qilib, estetik ruhda tarbiyalash;

— qatnashuvchilarning izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirish;

— san’atga bolgan qiziquvchanligii

— ozbek xalq amaliy bezak san’atiga bolgan muhabbatni uyqotish;

— xalq amaliy bezak san’ati va uning turlari, bajarish texnologiyasi va malakalarini shakllantirish, mehnatga bolgan muhabbatni tarbiyalash hamda kelgusida kasb tanlashga yordam berish va boshqalarni kozda tutadi.

Maqsadni amalga oshirishda togarak qatnashuvchilarining yoshi, qobiliyati va bilim darajasi hisobga olinadi. Togarak rahbari qatnashuvchilarning yoshi, qobiliyati va bilim darajasini organib, ularni kichik gruppa, orta gruppa va katta gruppalarga boladi. Kichik gruppaga yangi qabol qilingan qatnashuvchilar bir yil qatnab, keyin orta gruppaga otadilar, ular ham bir yildan song katta gruppaga otadilar.

Bir yillik mashqulotlar uchun kichik gruppaga 144 soat, katta gruppaga ghh soat, orta gruppaga g16 soat ajratiladi. Bir haftada kichik gruppada

g soatdan 4 soat, orta va katta gruppada

q soatdan 6 soat mashqulot otkazish tavsiya etiladi. Xalq amaliy bezak san’ati mashqulotini otkazish uchun ikkita (katta va kichik) xona ajratish lozim. Katta xonada nazariy mashqulot otiladi. Xona keng va yoruq, toza bolishi kerak. Xalq amaliy bezak san’ati togarak mashqulotlari olib boriladigan xonada quyidagi jihozlar bolishi tavsiya etiladi:

— umival`nik, stolstullar, doska;

— togarak burchagi (bunda togarak tarixi, dars jadvali, navbatchi vazifalari, togarak aktivistlari va boshqalar yoritilgan bolishi kerak);

— xalq amaliy bezak san’ati va uning turlariga oid stendlar tashqil etish;

— stellaj va shkaflar, epidiaskop, diaskop va boshqa texnik asboblar;

— xonani yoritadigan lampalar;

— derazalarga ikki xil, bittasi oddiy parda bolsa, ikkinchisi diafil`m va slayda yoki kino korsatishda yopib qoyiladigan parda bolishi kerak;

— xalq amaliy bezak san’atiga oid al`bomlar, kitoblar, luqatlar, ustalar ijodiga baqishlangan stendlar; aptechka burchagi, devoriy gazetalar, hafta yangiliklari, gazeta maqolalari uchun taxta (songgi haftadagi yangiliklar qoyiladi va hokazo.

Togarakga oquvchilarni tanglash

Xalq amaliy bezak san’ati togarak mashgulotlarini maxsus orta va oliy oquv yurtini tugatgan mutaxassislar, xalq amaliy bezak san’ati ustalari olib borishi mumkin. Togarak rahbari qatnashuvchilarni gruppalarga bolishda ham bir gruppada 1g—1o ta qatnashuvchi bolishini nazarda tutishi lozim. Shuningdek, togarakka qatnashuvchilarni jalb qilishdan avval rahbar barcha shartsharoitlarni mavjud qilishi, songra rahbar togarak tashqil qilganlik haqida e`lon yozib, joylarga osishi, yaqin atrofdagi tashqilotlarga borib, joylardagi kasabalar uyushmasi tashqilotlari vaqillari, maktab rahbari bilan suhbatlashib, birgalikda tushuntirish ishlari olib borishi lozim. Bu yaxshi natija beradi. Birinchi tashqil etilayotgan togarakka juda kop qatnashuvchilar yoziladi, lekin togarak rahbari alohida xat tozib, qatnashuvchilarning ismi, familiyasi, ishlash, oqish, turar joyini, maktab oquvchisi bolsa, otaonasi haqida ma`lumotlarni yozib borishi kerak. Ma`lumki maktab oquvchilari (11—1g yoshdagi) hamma narsaga qiziquvchan bolib, ular boshqa togarakka a`zo bolishi mumkin. Shuning uchun rahbar oquvchilarni togarakka tanlab olishda jiddiy e’tibor berishi kerak. Togarakdan chetlashtiriladigan qatnashuvchilarni, bu ishga yaroqsiz yoki qolidan kelmasligini aytib, boshqalar oldida uyaltirmasligi kerak, aksincha, uni boshqa togaraklarga qatnashishini yotiqlik bilan tushuntirishi katta ahamiyatga ega. Sinash muddatida ba`zi qatnashuvchilar oz qobiliyatlarini darhol korsatmasligi ham mumkin. Shuning uchun qobiliyatlariga darhol xulosa chiqarishga shoshilish kerak emas. Togarakka yaxshi qatnashish uni ozlashtirish, mashqulotlarni qiziqarli, aniq, faktlarga asoslangan bolishiga

rahbar tomonidan toqri talab qilinishiga togarak hayoti va uning vazifalari haqida batafsil tushuntirishga boqliqdir. Togarak rahbari kichik gruppa qatnashuvchilariga alohida ahamiyat berishi zarur, ya`ni oqish, togarak mashqulotlarini ozlashtirishi, sababsiz qoldirmaslik kabi masalalarni nazorat qilishi kerak. Togarak tashqil etilgandan song gruppa boshliqlari va aktivlari saylanadi. Gruppa boshliqini saylashda qatnashuvchilar ichidan obroli, qolidan jamoatchilik ishi keladigan, har tomonlama ulguruvchi, boshqalarga namuna boladigan qatnashuvchi saylanadi. Saylangan gruppa boshliqi togarak rahbarining orinbosari hisoblanib, u davomat, ozodalik, navbatchilikni tekshirib boradi. Aktiv esa butun togarak hayotining tashqiliy ishlarida asosiy yordamchi kuchdir. Rahbar barcha togarak aktivlari ishi ustidan nazorat qilib borishi lozim. Bu nazorat aktiv qatnashuvchilariga ishongan holda ularni toqri yoldan borishlariga yordam beradi. Mashqulotdan song ustaxonani tez-tez tozalab turishga toqri keladi. Buning uchun navbatchilar grafigi tozib, togarak burchagiga ilib qoyiladi. Navbatchilar xonani tartibga solib, kelgusi mashqulotga tayyorlab qoyadilar. Navbatchi ikki kishidan iborat bolgani ma`qul.

Togarak hayotida ba`zan ayrim hollar bolib turadiki, bunda togarak rahbari qatnashuvchini bir gruppadan ikkinchi gruppaga otkazishi mumkin. Masalan, orta gruppadan yaxshi ozlashtirayotgan qatnashuvchini katta gruppaga va aksincha ulgurmayotgan ^atnashuvchini kichik gruppaga otkazadi. Bu holda qatnashuvchining shaxsiga tegmaydigan ish tutish lozim. Togarak mashqulotlari belgilangan dars jadvali boyicha muntazam ravishda olib boriladi. Rahbar har bir mashqulotga tayyorgarlik korgani holda vaqtliroq kelishi xona sharoitini va qatnashuvchilarni bolqusi mashqulotda qanday ishlar qilishini oldinroq kuzatib chiqadi. Rahbar mashqulot jarayonida har bir qatnashuvchiga alohida, ba`zan umumiy korsatma berib boradi. Kompozitsiya chizayotgan qatnashuvchiga mustaqil ish olib borishi uchun unga asosiy va umumiy tushuncha beriladi. Asboblarni toqri ushlashdan boshlab, ishni pardoz berishgacha ahamiyat berilishi tushuntiriladi. har bir soatda о—10 minutlik tanaffus berilishi zarur, chunki charchoqlik sust, idroksiz ishlar qilishga olib keladi, bu esa qatnashuvchilarning psihologiyasiga ta`sir qiladi. Shuning uchun mashqulot davomida xalq amaliy bezak san’ati haqida suhbat yoki uning ustalari hayotini sozlab berish maqsadga muvofiq boladi. Rahbar togarak qatnashuvchilari bilan ishlashda quyidagi printsiplarga amal qilishi kerak

- mashqulotning yonalishi qatnashuvchilarni kommunistik ruhda tarbiyalashga qaratilgan bolishi;

- qatnashuvchilarning qobiliyat darajasini va shaxsiy qiziqishlarini hisobga olishi;

- togarak ishlari ommaga va jamoaga foydali bolishi;

- togarak qayoti qatnashuvchilarni mustaqillikka, ijodiy faoliyatga va tashubbuskorlikka qaratilgan bolishi kerak.

Togarak mashqulotlarini dastur asosida quyidagi tartibda olib borish tavsiya etiladi.

Kichik gruppa qatnashuvchilariga san’at, san’at turlari, asbob-uskunalar, xom ashyo va boshqalar orgatiladi.

orta gruppa qatnashuvchilari asosan kichik fuppada olgan bilimlariga va tajribalariga asoslanib, mustaqil har xil narsalar bajaradilar.

Katta gruppa qatnashuvchilari kichik va orta grupalarda olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, har xil murakkab buyumlar yasaydilar, naqsh chizadilar.

Togarak mashqulotlarini toqri tashqil etishda botanika, geometriya, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, matematika, ona tili fizika va boshqa predmetlar bilan korgazmali namunalar orqali boqlanish lozim. Togarakni yaxshi olib borish uchun rahbar zamonaviy didaktikani yaxshi bilishi, uni amalda ijodiy qollay olishi, pedagogik faoliyatda didaktikaning quyidagi:

ta`lim va tarbiyaning birligi, ilmiy bolishi, korgazmalilik, onglilik, aktivlik va mustaqillik, ta`limning sistemali va izchil bolishi, qatnashuvchilarga mos bolishi, unda bilim, konikma va malakalarni puxta, mustahkam ozlashtirishi nazariyaning amaliyot bilan boqliq bolishi, ta`lim berishda har qaysi oquvchilarga xos xususiyatlarni hisobga olib orgatish printsiplariga amal qilishi zarur.

Psihologiya shuni korsatadiki, qatnashuvchining korish, eshitish, ta`m bilish va sezgi organlari qancha kop qatnashsa, shuncha bilim, konikma va malakalar yaxshi shakllanadi. Shunday ekan togarak rahbari korgazmali qurollardan unumli foydalanishi kerak. U faqatgina qatnashuvchilarning ishlarini korsatibgina qolmasdan, balqi ozi yoki qatnashuvchilar bilan tayyorlangan plakatlar, rasm va bezak materiallardan foydalanishi kerak.

## ASOSIY QISM

«Haqiyqiiy naqqosh shunday ufq topishi kerakki,
unga intiligan sari yangi-yangi gozallik olami ochilsin,
tabiatni aynan tasvirlash bu san'atning nihoyasi emas,
agar kimki rasmlardagi h1r bir chiziqqa jon bagishlay
olar ekan, u san'at kalitini egallagan boladi»[1]
Sharqqa mashhur buyuk naqqosh Moniy

## KAShTACHILIKDA BEZAK BUYuMLARI TURLARI

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bolib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bolgan. Shuning uchun har bir oila ozi uchun suzana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni ozi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda kop masalan, suzana, choyshab, oinaxalta, choy xalta, zardevor, palak, gulkorpa, dorpech, bugjoma, parda, belbog, takyapush (yostiq ustiga yopiladigan), duppi, koylak, dastrumol, hamyon, joynamoz, sumka, nimcha, maxsikavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. otmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan boldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

**Do'ppi** — ozbekistonda keng tarqalgan engil bosh kiyim. Duppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar urtasida, Rossiyada esa XIII asrda rasm bolgan. Asrlar davomida duppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirga shoyiga ip, ipak va zar bilan duppi gullari tikilgan. ozbekistonda, Toshkent, Shust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shaxrisabz duppilari mashxur bolib, ular oziga xosdir. Jumxuriyatimizning barcha rayonlarida duppi tikiladi. Uning İroqi, Shust duppi, Yilam duppi, Shakma tur, gizil gul, Piltadozi, Zarduppi, Tuldirma deb nomlanadigan milliy duppilar bor. har bir duppi yaratilish uslubiga ega bolib, ular birbiridan farq qiladi. ozbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega boladi. «Kuloq», «araqchin», «tus duppi».

[1] Zohidov P. O'zbeк memorshiligi., T, 1967, 21 bet

**Kuloq** — konussimon bosh kiyim. o asosan darveshlar qalpogi. Uning matoxi toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Kulox (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi.

**Araqchin** — sharsimon duppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon duppilar kanda hayol, bosma, chakmatur, iroqi chok usullarida tikiladi.

**Tus duppi** — Keng tarqalgan yassi yuzali duppi. Kopincha tus duppi chust duppi deb yuritiladi. Tus duppilarning birgina klassik variantining ozida sakkizta yuvelir chok uslubi qollaniladi. Masalan, zanjira, tugri chok, chita, kungura, etalatma, taroq, ova, pildiroq. Shust duppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida burtib chiqib, yarim shar korinishida boladi. Toshkent duppisi sidirga baxmaldan (gulsiz) tikilgan boladi. Buxoro duppilari sidirga yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yurma usulida tikilgan boladi.

**Joynamoz** — erga solib ustida namoz uqiydigan tushama. İslom diniga e`tiqod qiluvchilar ishlatishadi. o ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mexrob shaklida tikilgan boladi. ondan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. o turli ulchamda boladi. İbodatni kanda qilmaslik uchun boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, chopon, qiyiqcha, sholcha kabilardan, chunki ular diniy nuqtai nazardan pok xisoblanadi. Joynamoz kashtachilikda juda

Yilam duppilar.

Duppilar.

ozbek duppilari, Shustning tus duppisi.

Toshkent duppisi

Milliy duppilar.

Ayol va erkaklar duppisi

Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatilgan boladi.

**Zardevor** — uy jixozi, u sidirga shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum (Zardevor va suzana. XX asr boshlari). Zardevor ozbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga 'yoki devoriga ilib quyiladi. U zar ip yoki ipak gajimli bolib, eni 40—70 sm, uzunligi muljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

**Palak** — devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va tulin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla buzga kashta tikib tayyorlangan. U suzanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi.

Palakni urtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib osimliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida kopincha bodom, qalampir eementlari qollaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, un ikki oyli palak, xattoki katta uylar uchun qirk oyli palak tikilgani bizga ma`lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashxur kashtadozlar ba`zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, uz maxoratlarini namoyon etganlar. Agar oyni ichi sidirga rangda ifodalangan bolsa, uni oypalak, agar naqshli bolsa gulpalak va xokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qul mexnati kop bolgani uchun suzana deyila boshladi. Lekin hozir palakni qulda tikishga katta ahamiyat berillloqda.

**Kirpech** — kirpush, tokchaga taxlab quyilgan kiyimkechak ustidan yoki devorni vertikal bush joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qulda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qulda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyimkechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka uxshatib tikilgani kirpechpalak deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

**Suzana** — forscha suzani deb ham yuritiladi, igna bilan tikilgan degan ma`noni beradi. Suzana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bolib, xonani bezatish uchun devorga ilib quyiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U oziga xos badiiy korinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalanadilar. Shuning uchun palakdan farq qiladi. Suzana har bir xonadonda bolgan, chunki bir qiz turmushga chiqishidan oldin ozi uchun suzana tayyorlagan. Suzana kelinlarning sepi xisoblangan. Kambagal oilada suzanani malla, oq buzdan, badavlatroqlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. Suzana uchun kompozitsion joylashgan osimliksimon naqshlardan foydalaniladi. Suzana urtasida kopincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islimiy naqshlar bilan bezatiladi. Suzana tikish juda qadimdan rivojlangan bolib XIX asrgacha bolgan suzanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid

Samarqand, Buxoro, Nurota, Fargona, oratepa, Shaxrisabz, Toshkent, Fargona va boshqa joylardagi suzana turlaridan namunalar bor. San’atning bu turi ayniqsa ozbekiston va Tojikiston territoriyasida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda 40 yillardan boshlab suzana mashinada tikilib kelmoqda.

**Choyshab** — forschatojikcha ruyjo — tun chodiri degan ma`noni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun, tushak ustidan tushaladi. Tushak ustidan yoziladigan choyshab kam kashtali oq surup, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. hozirgi vaqtda choyshabdan suzana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmoqda.

## KAShTA TIKISh TEXNOLOGIYASI

Kashta — turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdir. Kashta har xil kiyimlarga, ruzgor buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zigir, jun, ipak, sun`iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metall pulakcha, qimmatbaxo tabiiy va sun`iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda oziga xos ish qurollari mavjud bolib, ular oziga xos operatsiyani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, tugnagich, angishvona, qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi. oz Xalq rassomi Fazilat Saydalieva.

Shambarak asosan yogochdan yasaladi, u doira, kvadrat, tugri turtburchak shaklida boladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi, chunki u qulaydir. hamma kashtalarga ham chambarak ishlatilavermaydi. İp va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yogoch dastali ikki xil, ya`ni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Ayrim materiallarga masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun utkir uchli 10—1g sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay bolishi uchun qatim o0—60 sm dan uzun bolmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa angishvona qollanilmaydi. Naqsh nusxasi har xil materiallarga har xil yollar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa kuchiriladigan qogozlar axta, yoruglik yordamida, naqsh chizilgan qogozni material ustidan kuklab chiqiladi keyin bu

qogozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtaduzdan katta maqorat hamda did talab qiladi. Tugri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab boladi.

Qulda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoq hamda urim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi esa matoga gul tasviri konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq urim iplari kesishtirib tikilgan polotno yoki buz shaklida tuqilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi ozbekistonda keng tarqalgan. Erkin kashta mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. ozbek kashtachiligida yurma, ilma, iroqi, bosma, xomdozi, chamak, chipta hayol, baxya choklar keng tarqalgan. Badiiy kashtalarda turli joydan turli choklar ishlatiladi. Shunonchi Shaxrisabzda yurma, kandahayol, İroqi, Toshkentda koproq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqand yurma choki bilan tikiladi.

**Shamak choki** — kashta tikish choklaridan biri bolib, chapdan ungga ikki parallel chiziq buylab tikiladi va ip utkazilgan igna ungdan sanchiladi. Sung yuqoriga chapga tomon qiya qilib chiqariladi va pastki chiziqqa parallel ravishda tugri qadaladi hamda pasti ham qiya qilib chiqariladi. Shamak choki kopincha naqshlarni ramkaga olishda yoki duppi kizaklariga badiiy bezak berishda ishlatiladi. gaychini kichik utkir uchlisi ishlatiladi. Shamak choki rus kashtadozlari orasida «kozlik» deyiladi.

**Baxya choki** — kashta chetlarini mustaxkamlashga xizmat qilib, matoga xuddi kuklagandek, lekin bir tekis chok hamda masofa xisobga olinib tikiladi. Shundan sung mato ugirilib yana tikib chiqiladi, natijada tekis ip chiziq xosil qilinadi. Bu chok juda qadimdan qulda, keyinchalik mashinada tikiladigan bolgan. U ikki qator, ya`ni qatorlar uzaro tutashib chiqishi ham mumkin.

**Koppa chokn**—turli yonalishda, ya`ni chapdan ungga, ungdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidirga tikib xosil qilinadi. YOnmayon tikiladigan choklar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadankichiklashib boradi. Bu chok duruya, (ikki tomonlama) sanama, piltadozi nomlar bilan yuritiladi. Duppidozlikda va kashtalarda juda keng foydalanadi.

**Shindi hayol** — duruya choka, matoga igna qadalib bir me`yorda tikib chiqiladi, teskari ugirib yana tikib chiqiladi. Shu tariqa matoning oldi va orqa tomonida bir xilda gul

xosil qilinadi. Bu chok bilan ikki tomoni ham kuzga tashlanadigan buyumlar, ya`ni sochiq, rumol va boshqalarni bezashda ishlatiladi.

Y**urma choki** — yurmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning ung tomonida xalqalar zanjiri xosil qilib tikilib, bigizga utkazilgan ipak matoning sirtida chap qul bilan ushlab turiladi. Sanchilib chiqqan igna bilan esa xalqa xosil qilinadi. Yurma choklari bilan yirik kashtalarning qoshiyalari, gul vabarglarni asosiy shoxga ulaydigan band va boshqalar qadimdan shunday usulda tikilgan. Yurma chokdan Samarqand, Buxoro, qshqadaryo kashtadozlari kop foydalanadilar.

ozbek xalq amaliy bezak san’ati togarak mashqulotlarini ijobiy tashqil etishda texnika vositalari etakchi rol` oynaydi. Kopgina togaraklarda maxsus ustaxona va kabinetlar ajratilgan blsada, lekin texnikaning maxsus vositalari, jumladan kinoapparat, epidiaskop, televizor, diaskoplar bilan ta`minlanmagan. Texnika vositalaridan foydalanish qatnashuvchilarning bilimini boyitadi, san’atga bolgan qiziqishini oshiradi. Togarak qatnashuvchilariga bilim berishda san’at haqida suhbatlar otkazib turish katta ahamiyatga ega. £atnashuvchilarni zeriktirib qoymaslik uchun korgazmadan toqri foydalanish va suhbat otkazish tavsiya etiladi.

Xalq amaliy bezak san’atining hayotda tutgan orni, turlari, Usta #odirjon *aydarov, Toshkent kulolchilik maktabi, ganch oymakor usta Shirin Murodov, naqshlarni ozbek arhitektura yodgorliklarida qollanilishi, girih va uning qollanilishi, qardosh xalqlar amaliy san’ati,Shohi Zinda, q. Yusupov va O’. Toxirovlar ijodiy portreti va hokazo, Mahmud Usmonov ijodi Xiva arhitektura yodgorliklari, yoqochlarda koylangan orzular, Samarqand.

Togarak tarbiya ishlarining eng qiziqarli va mazmunli shakllaridan biri ekskorsiyadir. Ekskorsiya qatnashuvchilarining togarak mashqulotlarida olgan bilimlarini mustaqkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi va taassurotlari ularning ijodiy qobiliyatini oshiradi. Ekskorsiya togarak mashqulotlari dasturidagi biror temani kengroq, atroflicha organish uchun uyushtiriladi. Togarak rahbari qatnashuvchilarni xalq amaliy san’ati muzeyiga, tarix muzeyiga, tabiat muzeyiga, xalq ustalari ishlarining ob`ektiga, qoshni togaraklarga va korgazmalarga, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarga ekskorsiyalarga olib borishi mumkin. Ekskorsiya vaqtida togarak qatnashuvchilari korgan va tanishgan asarlardan namunalar kochirib olishlari mumkin, bu esa ularning bilimini boyitadi, san’atga

bolgan qiziqishini oshiradi. Ekskorsiyani togarak rahbari yoki muzey ekskorsovodlari olib borishlari mumkin, bunda qatnashuvchilar xalq amaliy bezak san’ati haqida chuqurroq tushunchaga ega boladilar. Bizga ma`lumki, barcha san’at turlari kabi ozbek xalq amaliy san’ati ham oziga xos terminlarga ega. hozir olib borilayotgan xalq amaliy san’ati togaraklarini qoniqarli ahvolda emasligining sabablaridan biri, xalqimiz asrlar boyi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan xalq amaliy bezak san’ati terminlarini yaxshi organilmayotganligidir. Shu narsa ma`lum boldiki, qatnashuvchilar terminlarning luqaviy ma`nosini bilmaydilar. Shu sababli togarak rahbari mashqulotni mazmunli, qiziqarli otishi uchun, xalq amaliy san’ati terminlarini chuqur organishi va ozlashtirishi, luqaviy ma`nosini tushunish maqsadida oquvchilarni ozbek xalq amaliy san’atidan maxsus terminlar luqati bilan ta`minlashi; togarak rahbari maxsus kartoteka tashqil etishi, ya`ni xalq amaliy san’atidan terminlarni yiqib organib borishi; mashqulot davomida togarak a`zolariga oz miqdorda bolsa, ham terminlarni luqaviy ma`nosini yozdirib, hamda tushuntirib borishi; ozbek xalq amaliy san’atidan izohli luqat degan stend tashqil etishi va xonaga moslab ilib qoyishi maqsadga muvofiqdir. Shunday stendda taxminan quyidagi terminlarni yozishni tavsiya etamiz.

**Bofta -** osimliksimon naqsh eementi. Tanob aylanib otib, hosil qilgan jozibali shakl. Bofta xalq amaliy san’atining barcha turlarida ishlatiladi. Uning toqri egri va aralash chiziqli turlari boladi.

**Ganchxok -** soz tuproq, qum va ganchni suv bilan aralashtirib hosil bolgan qorishma. Ganchxok tayyorlashda bir qism ganch, bir qism qum, bir qism soz tuproq quruq elanmasdan aralashtiriladi. Suv qoshib yaxshilab holvaytar holatiga kelguncha aralashtirib keyin devorga suvaladi.

**Namoyon -** forscha korinish, manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon eng mukammallashgan etuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon voqe`likning umumlashgan xalq amaliy obrazini ozida aks etadi. Masalan, chamanzor, boqubostonlar, daryolar, gullar, barglar va boshqalarni aks ettiradi. Namoyonning chetlariga kopincha hoshiya namoyonning badiiy qilib korsatishda muhim rol` oynaydi. Namoyon hech yoqqa ulanmaydigan mustaqil kompozitsiyadir.

**Tarqil -** Kashtachilikda naqshning gul va barglarini ozidagi hosil bolgan soyalarni har xil rangli chiziqlar yordamida pardozlash. Kashtachilikda tarqil pardoz berishning bir turi bolib, naqqoshlar tabiatdagi gul va barglarni ozidagi soyalarni rangli chiziqlar yordamida tasvirlaydi. Tabiatdagi gullarning uruq va changlarini qam naqqosh naqshni pardozlashda chizib boyab tasvirlaydi.

**Usta -** biror hunarni egallab, shu sohada malaka orttirgan shaxs. oz hunarini yaxshi biladigan kishi.

Xalq amaliy san'ati togaragi oldiga qoyilgan tarbiya masalalarni hal qilishda mashqulotdan tashqari qilinadigan ishlar muhim rol` oynaydi, chunki qatnashuvchilarning mashqulotlarda organgan bilim va tajribalarini mustahkamlashda, dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bolib xizmat qiladi.

Mashqulotdan tashqari quyidagi ishlarni uyushtirish maqsadga muvofiqdir:

xalq amaliy san'at xalq amaliy bezak san'ati, tarix muzeylariga, ganch, yoqoch, tosh oymakor ustalarning ishlayotgan joylariga, arhitektura yodgorliklariga hamda qoshni togarakka ekskorsiya qilish;

ozbekistondagi xalq amaliy bezak san'ati ustalari, san'atshunos olimlar va boshqalar bilan uchrashuvlar otkazish

qatnashuvchilarning ishlaridan korgazmalar tashqil etish.

«YOSH ustalar» nomli devoriy gazetalarni dluntazam chiqarib turish.

«Mohir qollar», «Bizning ustalar», «Gozallik sohibkorlari», «Mashhur oymakor ustalar» temalarida stendlar tashqil etish;

mashhur ustalarning ishlaridan va qatnashuvchilarning ishlaridan fotoal`bomlar tayyorlash;

yosh oymakor ustalarning hayoti va ijodiga baqishlab ijodiy jurnallar tayyorlash;

qatnashuvchilar ortasida konkorslar otkazish;

viktorinalar tashqil etish;

mashqulotdan tashqari vaqtlarda xalq amaliy bezak san'ati, arhitektura yodgorliklari va boshqalarga oid diafil`mlar va kinofil`mlar korsatish.

Arhitektura, muzey yoki ganchkorlar, yoqoch oymakorlar, misgarlar ish ob`ektiga borish, ustalarning ishlaridan naqsh namunalaridan nusxalar olish.

Xalq amaliy bezak san’ati ustalarining Kashtachilikdagi naqsh kompozitsiyalari va oyma ishlaridan fotonamunalar va korgazmalar tashqil etish;

olimpiadalar otkazish;

ustalarning ishlaridan fotonamunalar saqlash uchun alohida papkachalar tashqil etish;

bu ishlar togarakning mahalliy sharoitiga moslab, togarak dasturiga asoslanib, toziladi, rahbarning ish rejasi asosida olib boriladi.

Xalq amaliy bezak san’ati togaragi belgilagan dastur asosida togarak qatnashuvchilari quyidagi talablarni hayotda tatbiq etishi lozim:

- ozbek Kashtachilik xalq amaliy bezak san’atining hayotdagi roli va uning ahamiyati;

- Kashtachilik xalq amaliy bezak san’atida ishlatiladigan materiallarning hammasida ishlay olish;

- har xil asboblarda erkin ishlay olish;

-naqsh turlari va ularning eementlarini chiza bilishi;

- osimliksimon, geometrik, ramziy va boshqa naqsh turlarini tuza bilish;

- bu naqshlarni xalq amaliy san’ati turlarida qollay bilish;

- Kashtachilik xalq amaliy bezak san’ati buyumlarini yasay olish;

- ish ornini toza tutish, texnika xavfsizligi, yonqin xavfsizligi va gigiena qoidalarini bilish;

- ish vaqtidan unumli foydalanish;

- ish ornini va ishning eng ilqor metodlarini tashqil etishni bila olishi;

- murakkab bolmagan Kashtachilik xalq amaliy bezak san’ati asarlarini oqiy olish va ularni tahlil qila olishlari kerakligi va boshqalar.

Bu togarak mashqulot dasturini toliq ozlashtirgan har bir qatnashuvchi turli joylarda klub, madaniyat uyi qoshlarida xalq amaliy san’ati boyicha oqituvchilar, togarak rahbari sifatida ishlashlari mumkin.

**Tabiiy osimlik turlarini naqsh eementlari holatida chizish stilizatsiyalash.**

Kashtachilik san’atining ildizi juda qadim utmishimizga borib takaladi. İnsoniyat ozi uchun zarur bolgan jamiki buyumlarni badiiy bezab, takomillashtirib kelgan. Oddiy ruzgor

buyumlaridan tortib, kiyim-kechak, kitob, bino bezaklari hamma-hammasi naqsh eementlari yardamida bezatiladi. xalq amaliy san’atida bezak eementlari tabiatda uchrovchi osimlik dunyasi, gul, novda, barg va hayvonlar tasvirini eng sodda korinishlarida aks ettiriladi.

Ma`lumki har bir naqsh namunasi oziga xos naqsh eementlarini yigindisidan iborat. Stilizatsiya asosan osimlik va hayvonot dunyasidan olingan turli shakllar masalan, butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, mevalar va shu kabilarning tabiiy shakllarini qayta ishlash demakdir. Bunda tanlangan shaklni naqsh kompozitsiyasi tarkibiga kushish mumkin bolgan bezak shakliga keltiriladi. Bunda oquvchi butun bir yaxlit predmetning tashki korinishlarini bir nechta badiiy chiziklar yardamida anik lunda qilib tasvirlashni organadi. xalq ustalari kadimdan kullab kelayatgan jami naqshlar tabiat hamda vokelikning shartli tasviri bolishiga karamasdan oziga xos konun-koidalarga ega. Bu konun-koidalar tabiatning ozidan olingan. osimliklar fakat bir tomonga karab usadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga karab teskari usayatgandek tuyuladi, lekin novdadan barg bolib, bir tomonlama yonalishda davom etib keladi. Tabiatning bu konuni naqshda uz aksini topgan. Usta chizadigan naqsh shunchaki qogoz betini tuldirish uchun emas, balqi, ongli ravishda tabiat va badiiylik konun-koidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iboratdir. Badiiy naqsh ishlash jarayanida oquvchilar koyidagilarni puxta ozlashtirib olishlari zarur:

- atrof muhitdagi, tabiatda mavjud bolgan tabiiy shakllarni qayta ishlash, ya`ni stilizatsiyalash yollarini bilishlari, undan samarali foydalana olishlari kerak.
- berilgan naqsh eementlari yaki namuna asosida yangi naqsh kompozitsiyasini tuza olishlari.
- mustaqil ravishda yangi naqsh kompozitsiyasini tuza oladigan bolishlari.

Naqsh eementlari bilan tanishtiruv mashgulotlarida ukituvchi oquvchilarni tabiat koyniga sayahatga olib chikadi va ular mashgulotlarda organgan nazariy hamda amaliy bilim malakalari asosida, osimliklar, hayvonot dunyasini kuzatadilar va “stilizatsiyalashtirish” orqali ularning badiiy tasvirlarini, shakllarini xosil qilish bilan bevosita shugullanadilar. Ukuvchilarga maxsus ketma-ketlik asosida tozilgan rangli yaki ok-kora foto-suratlardan foydalanish orqali tushunchalar berish ham yaxshi natija beradi.

Stilizatsiya tabiatda uchraydigan osimliklar, hayvonot dunyasini, uy-ruzgor buyumlarini tabiiy korinishdan ancha soddalashtirib, eng ixcham korinishlarda tasvirlash

demakdir. Naqsh chizishni organuvchilar ana shu usulni batafsil tushungan holda egallab olishlari lozim. Chunki kopgina naqsh kompozitsiyalari ana shu tarzda qayta ishlangan turli-tuman shakllar, tasvirlar yardamida qilinadi.

Kashtachilik mashgulotlari jarayanida naqsh eementlarini chizish va ularni xosil qilish tartiblari yollari va usullari ozlashtirib boriladi. Dastlabki mashgulotlarda naqsh eementlari tarzida koyidagi shakllar chizib organiladi.

- barglar (barg eementlarini chizish).
- gullar (gul eementlarini chizish).
- novdalar (novda eementlarini chizish).
- boglam va sirtmok (ularni eementlarini chizish).
